



**“Milliy farmatsevtikada ta’lim,
fan va ishlab chiqarishning
muammolari va istiqbollari”
mavzusidagi Respublika
ilmiy-amaliy anjumani**

MATERIALLARI TO`PLAMI



**14-NOYABR, 2025-YIL
TOSHKENT**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

MILLIY FARMATSEVTIKADA TA‘LIM, FAN VA
ISHLAB CHIQRISHNING MUAMMOLARI VA
ISTIQBOLLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy - amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

TOSHKENT - 2025

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

Республиканской научно-практической конференции на тему

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ПРОИЗВОДСТВА В
ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ**

ТАШКЕНТ - 2025

Tahrir hay'ati

Rais: K.S.Rizayev - tibbiyot fanlari doktori

A'zolari:

N.S.Normaxamatov - kimyo fanlari doktori

A.T. Sharipov – farmatsevtika fanlari doktori

M.T.Mullajonova - farmatsevtika fanlari nomzodi

Редакционная коллегия

Председатель: К.С.Ризаев - доктор медицинских наук

Члены редакционной коллегии:

Н.С.Нормахаматов - доктор химических наук

А.Т.Шарипов - доктор фармацевтических наук

М.Т.Муллажонова - кандидат фармацевтических наук

STOMATOLOGIK GEL DORI TURINING BUGUNGI KUNDAGI ISTIQBOLI

Ismoilova G.A., Ziyamuxammedova M.M., Norqulova X.M.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston

e-mail: gulhayoismoilova34@gmail.com

Dolzarbligi: So'nggi yillarda og'iz bo'shlig'i kasalliklarini davolashda mahalliy ta'sir ko'rsatuvchi dori turlarining, ayniqsa gel shaklidagi preparatlarning o'rni sezilarli darajada oshmoqda. Gel dori turlari o'zining yuqori yopishqoqligi, bioadgesiv xususiyatlari va dori moddasining mahalliy hududda uzoq saqlanish imkoniyati bilan ajralib turadi. Zamonaviy stomatologiyada gel asosidagi preparatlar gingivit, stomatit, parodontit, kariyesdan keyingi og'riq holatlari hamda shilliq qavatning yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish maqsadida keng qo'llanilmoqda.

Gellar tarkibiga antiseptiklar (xlorheksidin, metronidazol), yallig'lanishga qarshi moddalar (benzidamin, diklofenak), og'riq qoldiruvchi vositalar (lidokain, mentol) hamda tabiiy ekstraktlar (xandeliya, moychechak, aloe vera) qo'shilishi ularning terapevtik samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, o'simlik manbali bioaktiv moddalarga asoslangan gellar kimyoviy preparatlarga nisbatan xavfsizligi va ekologik tozaligi bilan e'tiborni tortmoqda.

Hozirgi davrda stomatologik gellar ishlab chiqarishda gidrofil polimer asoslar — karbomer, natriy alginat, gidroksietilsellyuloza, polivinilpirolidon, poloksamer kabi moddalar keng qo'llanilmoqda. Ular dori moddasining asta-sekin chiqarilishini, yuqori yopishqoqlik va yaxshi mexanik barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, nanoemulsiya va bioadgesiv gel texnologiyalari asosida tayyorlanayotgan yangi shakllar og'iz shilliq qavatida dori moddalarining barqaror taqsimlanishini ta'minlab, ta'sir davomiyligini uzaytiradi.

Jahon amaliyotida stomatologik gel texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalish O'zbekiston farmatsevtika sohasida hali to'liq o'zlashtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: Stomatologik gel dori turlarining zamonaviy farmatsevtik texnologiyalar asosida ishlab chiqilishi, innovatsion yondashuvlar asosida dori vositalarini yangi avlodini shakllantirishga qaratilgan.

Usul va uslublar: Tadqiqotda ilmiy manbalarni tahlil qilish, umumlashtirish, tizimli yondashuv va mantiqiy izchillik uslublari ko'rib chiqildi. Gel dori turini shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy komponentlar, ularning o'zaro ta'siri va samaradorlik omillari ilmiy jihatdan o'rganildi. Olingan ma'lumotlar stomatologik gel dori turlarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda qo'llash jarayonlarini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslarga qaratiladi.

Natijalar: Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bioadgesiv gellar stomatologik amaliyotda nafaqat simptomatik davolash, balki regeneratsion jarayonlarni tezlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar — nanogellar, probiotik komponentlar bilan boyitilgan gellar hamda antimikrobik polimer asoslar kelajakda stomatologik dori vositalarining yangi avlodini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday gellar shilliq qavatga zarar yetkazmasdan, yuqori terapevtik samaradorlikni ta'minlaydi.

Xulosa: Olib borilgan izlanishlar natijasida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, stomatologik gel dori turlari hozirgi kunda og'iz bo'shlig'i kasalliklarini davolashda eng istiqbolli dorivor shakllardan biri bo'lib, ularning ishlab chiqarilishi biotexnologik va polimer kimyosi yutuqlariga asoslanadi. Kelgusida tabiiy bioaktiv komponentlar, nanotexnologiyalar va modifikatsiyalangan polimer asoslardan foydalanish orqali stomatologik gellarni yanada samarali, xavfsiz va ekologik barqaror shaklda innovatsion gel tarkiblarini yaratish imkoniyati mavjud.

	5-SEKSIYA. YANGI DORI VOSITALARINI YARATISH	126
123.	YANGI DORI VOSITALARINI YARATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR <u>Abubakirov S.A., Nazarova Y.</u>	126
124.	"EKSANTIOKSIDANT" QURUQ EKSTRAKTINI YAROQLILIK MUDDATINI BELGILASH F.B.Ismailova., Ilhamova N.B., X.M.Yunusova	127
125.	STOMATOLOGIK GEL DORI TURINING BUGUNGI KUNDAGI ISTIQBOLI Ismoilova G.A., Ziyamuxammedova M.M., Norqulova X.M.	128
126.	GEMATOGEN BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHASI TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH <u>Sh.A.Muzaffarova, M.M.Xamdamov</u>	129
127.	KARBOMER ASOSIDAGI GIDROGEL VA ORGANOGEL MATRITSALARDAN DIKLOFENAK NATRIYNING DIFFUZIYALANISH KINETIKASINI O'RGANISH Eshmatov A.M., Inagamov S.Y.	130
128.	MAKKAJO'XORI ZEA MAYS L DONI OQSIL IZOLYATINING FERMENTATIV GIDROLIZI VA BIOLOGIK FAOLLIKLARI Karabayeva S.B., Qoraboyeva B.B., Qo'ziyeva Z.N., Azimova M.O., Oripova M.J.	132
129.	KETOPROFEN ASOSIDA YALLIG'LANISHGA QARSHI VA OG'RIQ QOLDIRUVCHI YANGI TARKIB ISHLAB CHIQISH <u>Tojiboyev D.M., N.M. Rizaeva, Xusainova R.A.</u>	133
130.	РАЗРАБОТКА КОМПЛЕКСНОГО ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНОГО ФИТОСБОРА ДВОЙНОГО ДЕЙСТВИЯ С ПЕРСПЕКТИВОЙ СОЗДАНИЯ РАЗЛИЧНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ФОРМ <u>Ф.Х.Тухтаев, S.M.Мухитдинова</u>	134
131.	ФЕРМЕНТЛАРДАН ФАРМАЦЕВТИК ФАОЛ ИНГРЕДИЕНТ СИФАТИДА ФОЙДАЛАНИШ <u>Тухтаев Ф.Х, Умаров Б.Р.</u>	135
132.	ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ФЕРМЕНТА АЛЬФА АМИЛАЗЫ ИЗ РАСТИТЕЛЬНЫХ ОБЪЕКТОВ <u>Тухтаев Ф.Х, Умаров БР., Камилов Х.М.</u>	136
133.	EDUCTION OF DRY EXTRACT AND DITERPENOID LAGOSCHILIN FROM THE PLANT LAGOSCHILUS INEBRIANS Tursinova T.Y., Zaripova R.Sh., Islamov A.Kh.	137
134.	ВОЗМОЖНОСТЬ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВА АЛЛЕРГЕНОВ ИЗ ПЫЛЬЦЫ СОРНЫХ ТРАВ В УСЛОВИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Абдугофурова М.Р., Шерматова И.Б.	138
135.	МОЛЕКУЛЯРНЫЙ ДОКИНГ КОМПЛЕКСА CoLК S БЕЛКАМИ МЫШЕНЯМИ S ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВЕБ-СЕРВЕРА СВ-DOCK 2 Абдуллоева М.Г., Жумабаев Ф.Р., Шарипов А.Т.	139
136.	GINEKOLOGIYA AMALIYOTI METRONIDAZOL SAQLAGAN YUMSHOQ DORI TURLARI NOMENKLATURASINI O'RGANISH I.M. Ismoilov, N.M. Rizayeva	140
137.	ПОЛ-ПОЛА ВА МАККАЖЎХОРИ ПОПУКЛАРИ ЙИҒМАСИ ФИЛЬТР-ПАКЕТЛАРИНИ ДАМЛАШ ШАРОИТЛАРИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ А.Ахмадходжаева, З.Н.Эшмуратов	141